



## SEMANTIK KALKALANGAN OT TURKUMIDAGI SO'ZLARNING POLIFUNKSIONALLIGI

**Sulaymonova Gulbahor**

*Yangiyo'l shahar 1-son kasb-hunar  
maktabining ona tili va adabiyot fani o'qituvchisi*

**Kalit so'zlar:** *semantik kalka, muqobili bo'lgan so'zlar kalkasi, muqobili bo'lmagan so'zlar kalkasi, polifunksionallik, nominativ funksiya konnotativ funksiya*

Inson nutqiga xos xususiyatlardan biri til birliklarining shakl va mazmun jihati bilan bog'liq o'zgarishlarning, xususan, nomutanosibliklarning yuzaga kelishidir. Zero, shu qonuniyat sabab hozirgi o'zbek tili leksik qatlamiga mansub ko'p so'zlar polifunksionallikka moyillashgan. So'zlarga xos polifunksionallik hodisasining belgilanishi ham ularning turkumlanishi bilan uzviy aloqador. Til birliklariga xos bo'lgan polifunksionallik turli ko'rinishlarining asosiy negizi mana shu lug'aviy-grammatik bo'linish zamirida yuzaga keladi. Ammo shu narsa aniqki, til sathlarining hammasi ham dialektik jarayon sifatida aynan bir xil o'zgaruvchanlikka moyil emas. Shuning uchun polifunksionallik turli til birliklari doirasida o'rganilganda ularning o'ziga xos vazifa bajarish usullarini, o'lchovlarini aniqlab chiqish zarurati tug'iladi. Nazarimizda, polifunksionallik terminini ikki xil, ya'ni tor va keng ma'noda tushunish mumkin. Tor ma'noda so'zlarning faqat sintaktik vazifa bajarishi nuqtayi nazari ko'zda tutilsa, keng ma'noda so'zlarning nominativ hamda konnotativ funksiyani bajarishi tushuniladi.

So'zlarning yangi ma'no kasb etishiga olib keluvchi lisoniy omillarning bittasi semantik kalka hisoblanadi.

O'zbek tilshunosligida kalkalash masalasi E. Shoahmedovning nomzodlik dissertatsiyasida o'rganilgan<sup>4</sup>. Mazkur ishlarda kalkalashning leksik hamda semantik turlari haqida so'z boradi. Biroq ularda kalkalash natijasida paydo bo'lgan yangi so'z (leksik kalkalash natijasida) yoki yuzaga kelgan yangi ma'no(semantik kalkalash oqibatida)larning funksional-semantik xususiyatlari, binobarin, ularning polifunksionalligi masalalari haqida aniq bir fikr bildirilmagan. Vaholanki, semantik kalkalash natijasida o'z tilimizda mavjud bo'lgan, yillar davomida qo'llab kelinayotgan so'zlarimizga yangi-yangi ma'nolar yuklatilgan.

Leksikologiyaga oid ishlarda semantik kalka haqida juda qisqa ma'lumot berish bilan cheklanilgan. «O'zbek tili leksikologiyasi» kitobida faqat quyidagi fikr keltirilgan: «Lingvistik faktor natijasida yangi ma'no hosil bo'lishiga olib keluvchi hodisalardan navbatdagisi semantik kalkadir. Ma'lumki, lug'at sostavining boyishida o'zga tillarning ta'siri ham asosiy omillardan hisoblanadi. Bunday ta'sir o'zga tildan so'z o'zlashtirishdagina emas, chet so'zlarga xos ma'noni o'zlashtirishda ham ko'rinadi.

<sup>4</sup> Shoahmedov E. Rus tilidan o'zbek tiliga kalkalash masalasiga doir: Filol. fan. nomz. ... dis. –Toshkent, 1974. –135 b.



Masalan, *san'at saroyi* birikmasidagi *saroy* so'zining ma'nosi bevosita *дворец искусств* kabi kalka yo'li bilan o'zlashtirish asosida yuzaga kelgan<sup>5</sup>. Semantik kalka natijasida yangi ma'no hosil bo'lishi, ayniqsa, terminologik leksika uchun xarakterli»<sup>6</sup>.

Kimyo terminlari tadqiqotchisi A.Madvaliyev shunday deb yozadi: «Umumiste'moldagi so'zlarning terminlashuvi natijasida ularning umumtildagi xilma-xil sinonimik, antonimik va boshqa konnotativ munosabatlari terminologik qo'llanishda tamoman boshqacha tus oladi. So'z terminga aylanan ekan, u ekspressiv va konnotativ jihatdan neytral so'zga aylanadi, uning umumtildagi o'ziga xos sinonimik va antonimik munosabatlari buzilib, bu munosabatlar o'rniga shu tildagi yangicha munosabatlar yuzaga kelishi mumkin. Masalan, terminologik ma'nodagi *suvni haydash* birikma termini o'rniga *suvni quvlash* birikmasini qo'llab bo'lmaydi. Xolbuki, umumadabiy tilda *quvlash* va *haydash* fe'l formalarining o'zaro sinonimligi ma'lum».<sup>7</sup>

A.Madvaliyevning bu fikrini ma'qullab, qo'shimcha sifatida shuni ta'kidlab o'tish lozimki, semantik kalkalash, asosan, terminologik tizimlar sathida ro'y beradi. Aniqroq qilib aytganda, ruscha-baynalmilal bo'lmish fan-texnikaga oid terminlarning ma'nosi o'zbekcha so'zlarga ko'chiriladi. Aytilganlardan semantik kalkalash ilmiy uslub sathida ro'y beradi, degan xulosaga kelish mumkin. Chunki shunday yo'l bilan yangi ma'noning paydo bo'lishi, masalan, badiiy uslubga tegishli so'zlar doirasida ro'y bermaydi.

Semantik kalkalash muqobili bo'lgan va muqobili bo'lmagan so'zlarga bo'linadi:

**1. Muqobili bo'lgan so'zlar kalkasi.** Noqardosh tillarda shunday holatlar bo'ladiki, u yoki bu tushuncha ikkala tilda ham bir xil ma'noli so'zlar vositasida ifodalanadi. Masalan, rus tilidagi *крыло* so'zining asl ma'nosi o'zbek tilidagi *qanot* so'zining asl ma'nosiga muvofiq keladi. Binobarin, ayni shunday so'zlar ko'pincha semantik kalkalashga moyil bo'ladi. Masalan: *крыло самолёта* – *samolyot(ning) qanoti*, *спутник Земли* – *Yer yo'ldoshi*, *паровой котёл* – *bug' qozoni* va boshqalar.

**2. Muqobili bo'lmagan so'zlar kalkasi.** Ruscha-baynalmilal so'zning ma'nosi muqobili bo'lmagan so'zlarga ham ko'chiriladi. Ruscha-baynalmilal biror so'zning ma'nosi uning ma'nosini ifodalamaydigan boshqa bir so'zga yuklatiladi (*телефонная трубка* – *telefon dastasi* kabi).

Kalkalash natijasida ro'y beradigan lisoniy dalillardan biri rus tilidagi birdan ortiq so'zlarning ma'nolari faqat bitta o'zbekcha so'zga yuklatilishidan iborat. Masalan, rus tilidan o'zlashgan *komanda* so'zi «muayyan sport turi bo'yicha birga harakat qilish uchun tuzilgan sportchilar jamoasi» (O'TIL-5; II, 392) ma'nosida birmuncha vaqt

<sup>5</sup> Bundan qariyb o'ttiz yil oldin bildirilgan mazkur fikrda saroy so'zining ma'nosi dvores so'zi ma'nosining semantik kalkasi ekanligini tasdiqlab, yana shuni demoqchimizki, u hozirda «park» ma'nosining ham semantik kalkasi hisoblanadi. Shahar ichi avtobuslari peshonasidagi «1-avtomobil saroyi» (qisqartib 1-avtosaroy») deb yozib qo'yilgan va ushbu qisqartirish 5 jildli «O'zbek tilining izohli lug'ati»da aks ettirilganligi (1-jild, 35-bet) shundan dalolat beradi.

<sup>6</sup> O'zbek tili leksikologiyasi. – Toshkent: «Fan», 1981.– B. 233.

<sup>7</sup> Madvaliyev A. Kimyo terminlarining semantik usul bilan yasalishi // O'zbek tili va adabiyoti. –Toshkent, 1986. – № 3. –B. 52.





davomida o'zbek tilida qo'llab kelindi: *futbolchilar komandasi, voleybolchilar komandasi* va boshqalar. XX asrning oxirlari va, ayniqsa, XXI asr boshlaridan mazkur tushuncha «bir to'da, guruh kishilar» ma'nosini ifodalovchi **jamo**a so'zi bilan ham ifodalana boshlandi. Pirovardida, **komanda – jamoa** sinonimik qatori paydo bo'ldi. Bu sinonimik qator bir muddat baravar ishlatib kelindi. Hozirda esa **komanda** so'zi umuman qo'llanmay qo'ydi va uning o'rnini **jamo**a so'zi egalladi: *Terma jamoaning finalga qadar o'tkazgan besh uchrashuvda Mixaylichenko besh bora raqiblar darvozasiga to'p urishni uddaladi.* («7x7» gazetasi) Binobarin, **jamo**a so'zi semantik kalka natijasida yana bir denotativ ma'no bilan boyidi. Bu esa mazkur so'zning xizmat doirasi kengayganligidan dalolat beradi.

Shunisi diqqatga sazovorki, **jamo**a so'zi yuqoridagidan tashqari yana bir boshqa ma'noda ham qo'llana boshladi. Bu bevosita ruscha - baynalmilal **kollektiv** so'zi bilan bog'liqdir. Mazkur so'z o'zbek tilida ko'p vaqt davomida birinchidan, «maqsad, faoliyat va manfaatning umumiyliigi bilan birlashgan kishilar guruhi» (*badiiy havaskorlik kollektivi* kabi), ikkinchidan, «biror tashkilot, muassasa yoki korxonada birga ishlaydigan kishilar majmui» (*zavod kollektivi, trest kollektivi*) ma'nolarida qo'llab kelindi.

Respublikamizda kolxoz, sovxoz tizimlari barham topgandan keyin o'sha joylarni va o'sha erda istiqomat qiluvchi, umuman, biror maqsadda birlashgan kishilar guruhi ma'nolarini anglatish **jamo**a so'zi «zimma»siga yuklatildi. Masalan: «*Oqtosh*» **jamo**a xo'jaligi g'alla topshirish yillik rejasini bir yuz o'n foiz qilib bajardi. **Jamoaning** mehnati zoye ketmadi. Ko'ngillilar **jamoasi** va boshqalar.

Demak, semantik kalka natijasida **jamo**a so'zi yana bir denotativ ma'noga ega bo'ldi. Bu esa mazkur so'zning polifunksionalligi kengayganligidan dalolat beradi.

Semantik kalkada yuqoridagi holatga teskari holatni ham ko'rish mumkin. Buni ruscha **porog** so'zi ko'chma ma'nosining semantik kalkasi misolida ko'ramiz. Mazkur so'z rus tilida «biror manzil, masalan, qishloq, shahar, tuman, viloyat kabilarga yaqin joy» ma'nosini anglatadi. Quyidagi misolga e'tibor beramiz: *Chekingan dushman qishloq ostonasidagi tepalikka chiqib olib, qarshilik ko'rsata boshladi.* (N.Safarov) Demak, **porog** so'zining ko'rsatilgan ma'nosi **ostona** so'ziga yuklatilgan.

O'zbek tilida ayni shunday ma'noni ifodalash maqsadida **ostona** so'zining denotativ ma'nosi bilan sinonim bo'lmish **bo'sag'a** so'zi ham ishlatiladi. Masalan: *Same Abdullayevning qismi Sevastopol bo'sag'alariga yaqinlashib, Sapun gora deb atalgan tog' etaklariga yetib keldi.* (A. Rahmat)

Keltirilgan dalillardan bitta o'zga til so'zi ma'nosining ikkita so'z bilan ifodalanishi, birinchidan, **ostona** va **bo'sag'a** so'zlarining ma'nolarini boyitishga olib kelganligi, ikkinchidan, bu so'zlarning yangi ma'noda ham sinonimik munosabati saqlab qolingani ma'lum bo'ladi. Bunday holat esa **ostona** va **bo'sag'a** so'zlarining qo'llanish doirasi kengayganligini tasdiqlaydi.



Semantik kalkalashning til uchun muhim ahamiyatlaridan biri shundaki, u o'zlashtiruvchi tilning sinonimik imkoniyatlarini yanada kengaytiradi, natijada so'zlarning funksional-semantik qiymati yanada oshadi. Misollarga murojaat qilamiz.

«Jamiyatning tashkilotchi, hamma uchun majburiy qonun-qoidalarning, odob-axloq me'yorlarning yo'qligi bilan xarakterlanuvchi holati» (O'TIL – 5; 1,82) – bu ruscha-baynalmilal **anarxiya** terminining denotativ ma'nosi. O'zbek tilida mazkur so'z bilan bir qatorda uning leksik kalkasi bo'lmish **hokimiyatsizlik** termini ham qo'llab kelinadi (albatta, ilmiy uslubda).

**Anarxiya** terminining ko'chma ma'nosi o'zbek tilida azaldan qo'llab kelingan so'zlarga yuklatildi, ya'ni semantik kalkalash amalga oshirildi. Bitta emas, balki bir nechta o'zbekcha so'zlarning sinonimlari **anarxiya** terminining konnotativ ma'nosida qo'llanayotganligi semantik kalkalashning nechog'lik ahamiyati borligidan dalolat beradi.

**Anarxiya** terminining ko'chma ma'nosini, birinchi navbatda, **boshboshdoqlik** so'zi ifodalab kelmoqda. Masalan: *Ba'zan qattiqqo'llik ham kerak, o'rtoqlar! Usiz tartib-intizom izdan chiqadi.*

*Anarxiya, ya'ni boshboshdoqlik boshlanadi.* (S.Anorboyev) Ushbu sinonimik qatorda **beboshlik** so'zi ham turadi. Masalan: *Amalda siz aytganday qilinsa, beboshlikka katta yo'l ochiladi, hammayoq anarxiya bo'lib ketadi.* (P.Qodirov) Mazkur sinonimik qatorning navbatdagisi **o'zboshimchalik** so'zidir. Masalan: *Luqmonovning bevaqt o'lib ketishiga uchastkadagi o'zboshimchaliklar zomin bo'ldi.* (A. Muxtor)

**Tartibsizlik** ham shu sinonimik qatorda turuvchi so'zlardan hisoblanadi. Masalan: *«O'rtoqlar, – dedi Po'latov, – ishimizdagi tartibsizliklarning bari beparvolikdan kelib chiqmoqda».* («Bekajon» gazetasi)

Ba'zan **qonunsizlik** so'zi ham yuqoridagi so'zlarning sinonimi bo'lib kela oladi. Masalan: *Salgina bo'lsa-da, qonunsizlikka yo'l qo'yilishi bilan tartibbuzarlik boshlanadi.* (XS)

Semantik kalkalash natijasida yuzaga kelgan **anarxiya – boshboshdoqlik – beboshlik – o'zboshimchalik – tartibbuzarlik** sinonimik qatori, asosan, kitobiy nutqqa xos ekanligini ta'kidlash lozim. Biroq bu qator tarkibidagi **beboshlik** so'zi ko'proq so'zlashuv nutqiga xosligi bilan ajralib turadi.

Ma'lumki, «kema, avtomobil, traktor, trolleybus kabilarning boshqarish mexanizmi» ma'nosini ifodalash uchun ko'p yillardan buyon ruscha - baynalmilal **rul** so'zidan foydalanib kelindi. Masalan:

«*Qani, mehmon, marhamat*», – dedi **rulda** o'tirgan yigit. (M. Muhamedov) Shu bilan birga, hozirgi manbalarda ham ayni mazkur so'zdan foydalanib kelinyapti. Masalan: *Vahobjon rul boshqarib borarkan, o'y o'yladi: «Qani endi shu qizga uylansam, menga tegarmikan?»* («7x7» gazetasi) «G'ildirak, doira shaklidagi narsa, doira» – bu **chambar** so'zining ma'nosidir. Uning ana shu ma'nosi asosida **rul** so'zining ma'nosi ham ifodalana boshlandi. Masalan: *Yigit «Tiko» sini jildirib, bekat tomon siljib bordi va to'xtab, yolg'iz turgan qizga qo'llarini chambardan olmay dedi: «Qayerga bormoqchisiz,*





yaxshi qiz?» («7x7» gazetasi) Shu bilan birga, **chambar** so'ziga **-ak** qo'shimchasini qo'shish yo'li bilan **chambarak** so'zi yasalganki, natijada u ham **rul** so'zining ma'nosini ifodalab kelmoqda. Masalan: *Yigit sezilar-sezilmas jilmaydi. Chambarakka qo'l solib, mashinani g'izillatib yubordi.* («Bekajon» gazetasi)

Demak, **chambar** va **chambarak** so'zlari **rul** so'zining semantik kalkasi hisoblanadi.

Mana bu misoldan **quloq** so'zining ham **rul** ma'nosida ishlatilganligiga ishonch hosil qilish mumkin: *Hushyorlik bilan mashina qulog'ini burab ketayotgan yosh shofyor Kozim, o'zining harbiy holatda ekanini sezib, nihoyat g'ayratlangan.* (M. Muhamedov) To'g'ri, mazkur misolda **quloq** so'zi **rul** ma'nosida individual nutqqa xoslangan bo'lsa-da, u **chambar** va **chambarak** so'zlarining sinonimi sifatida qo'llangan.

Darvoqe, **quloq** so'zi xususida gap ketar ekan, shuni ta'kidlash lozimki, u yuqoridagidan o'zgacha ma'nolarda ham qo'llana boshlandi. **Quloq** so'zining quyidagi ma'nolari semantik kalkalash natijasida paydo bo'lgan: 1. Ruscha **naushniki** so'zining ma'nosini ifodalaydi: *Quloqqa taqib musiqa eshitish.* 2. Ruscha **kolok** so'zining ma'nosini anglatadi: *gitaraning qulog'i.* 3. Ruscha **ushko** so'zining ma'nosini bildiradi: *tirkamaning qulog'i. Komiljon bosh tarafida turgan ixchamgina radiopriyomnik qulog'ini buradi.* («Bekajon» gazetasi) Keltirilgan misollardan ko'proq narsa-predmetlarning nomlari semantik kalkalanilayotganligi ma'lum bo'ldi. Shu bilan birga, konkret ma'noli otlarning jonli turini ifodalovchi so'zlar ham semantik kalkalanishi mumkin. Shu nuqtayi nazardan qaraganda, shaxs nomlarini anglatuvchi ayrim so'zlar ham semantik kalkalash natijasida ko'chma ma'nolarda qo'llanayotganligini e'tiborda tutish lozim. Misollar keltiramiz. «O'zbek tilining izohli lug'ati» (2006-2008)da **qirol** so'ziga shunday izoh berilgan: «Monarxiya davlati, qirollik boshlig'i» (5-jild, 300). Aslida ruscha **korol** so'zining o'zbekchalashtirilgan shakli bo'lmish **qirol** shu ko'rinishida mazkur denotativ ma'nosidan tashqari, konnotativ ma'noni ham anglatadi. Bu so'zning yangi ma'nosi keyingi yillarda paydo bo'ldi, ya'ni u «biror sohada mashhur bo'lib topilgan, shuhrat qozongan shaxs» ma'nosida qo'llana boshladi. Masalan: *Pop musiqa qiroli Maykl Jekson Gollivud qirolichasi Elizabet Teylorni o'z kumiri deb biladi.* («Bekajon» gazetasi) Shu gazetada e'lon qilingan «Maykl Jekson hali ham qirolmi?» nomli maqolada ko'chma ma'nosida qo'llangan **superyulduz** so'zi **qirol** so'zining sinonimi sifatida qo'llanganligini ko'rish mumkin: *Shundan so'ng musiqa osmoni yangi superyulduz bilan charog'on bo'lganligi ma'lum bo'ldi.*

**Qism** so'zi haqida ham to'xtalamiz. Mazkur so'z «butunning bo'lagi» ma'nosi bilan o'zbek tilida qo'llanib kelinadi: «*Daromadning to'rtidan bir qismi investorga tegishli,*» - *dedi Muxiddin.* («Bekajon» gazetasi) Mazkur ma'no ruscha **chast** so'zi ma'nosining muqobili hisoblanadi. Binobarin, uning semantik kalkaga aloqasi yo'q.

Endi quyidagi misolga e'tiborni qaratamiz: *Emin uni (pulemyotni) shoshilib qo'lga oldi-da, bir zumda qismlarini ajratib gazetaga terib qo'ydi.* (I. Rahim) Misoldan **qism** so'zining «mashina, mexanizm, inshoot kabilarni tashkil etadigan bo'laklardan har bittasi» ma'nosini anglatib kelayotganligi ma'lum bo'ladi. Bu o'rinda **qism** so'zi ruscha



va ruscha-baynalmilal **chast** hamda **detal** so'zlarining semantik kalkasi hisoblanadi (qiyoslansin: *chasti velosipeda; detali stanka*). Shunisi ham borki, mazkur misolda **qism** so'zi konkret ma'no kasb etib, ilmiy uslubning texnik terminologiyasida qo'llanishga xoslangan.

**Qism** so'zining semantik kalkalash natijasida funksional-semantik ma'noli so'zga aylanganligini quyidagi misol bilan tasdiqlash mumkin: *Roman besh qismdan iborat ekan. Nega yozib bo'lmaysiz? Ma'ruzaning siyosiy qismi, raqamlar tayyor deyish mumkin.* (A. Qahhor) Misolda **qism** so'zi «kitob, asar, maqola, ma'ruza kabilarning ma'lum darajada mustaqil bo'lgan alohida bo'lagi» ma'nosini anglatib kelmoqda. U ayni shu ma'nosida kezi kelganda **bob, bo'lim, fasl** kabi so'zlar bilan sinonimik munosabatda bo'lishi mumkin. Qiyoslansin: *uch qism (bob, bo'lim, fasl)dan iborat roman.*

**Qism** so'zining **bob, bo'lim** kabi sinonimlari hozirda ham kitobiy uslubda qo'llanayotgan bo'lsa, **fasl** sinonimi tarixiylik kasb etgan, ya'ni istorizm qatlamiga o'tib qolgan. Shunday bo'lsa-da, **fasl** so'zi o'tmishni tasvirlashga bag'ishlangan asarlarda ishlatib kelinmoqda. Masalan: *Bu borishdan (Otabek) biror ish chiqara oldimi, yo'qmi, bu to'g'rida biz kelasi fasllarning birida o'rganamiz.* (A. Qodiriy)

**Qism** so'zi yana bir ko'chma ma'noda ishlatiladiki, bu ham ruscha **chast** so'zining semantik kalkasi hisoblanadi. Masalan: *Mehmonlar bilan vakillarning qizg'in tabriklari, xayrli tilaklaridan keyin kechaning rasmiy qismi tugadi.* (P.Tursun) Bu o'rinda **qism** so'zi «biror ish, voqea-hodisa kabilarning bir bo'lagi» ma'nosida qo'llangandir.

«Qurolli kuchlar tarkibidagi alohida bo'lim, bo'linma yoxud birikma» (O'TIL-5;V, 304) – bu **qism** so'ziga yuklatilgan yuqoridagilardan farqi o'zgacha funksional-semantik ma'nodir. Masalan: *Raketa otilishi bilan diviziyaning minomyotchilar qismi shiddatli o't ochib yubordi.* («7x7» gazetasi) Misoldan **qism** so'zi ilmiy uslubning harbiy terminologiyasi sohasida qo'llanishda ekanligi ma'lum bo'lib turibdi.

Semantik kalkalash va uning oqibatida paydo bo'ladigan yangi funksional - semantik ma'nolarning polifunksionalligi haqida gap ketar ekan, shuni ta'kidlash lozimki, kasb etilgan yangi ma'nolar matn tarkibida ochiq-oydin ko'rinib turadi. Bunda minimal matn(birikma)ning ham o'ziga yarasha xizmati bor. Shunga ko'ra, quyida semantik kalkalash natijasida o'zbek tilidagi so'zlarning yangi, qo'shimcha ko'chimlarga ega bo'lganligini tasdiqlovchi birikmalardan namunalar keltiramiz: *siyosat maydoni, yosh bo'g'in, fikrlar oqimi, bilim kurtagi, bilim o'chog'i, so'l qanot, qalam haqi, kun tartibi, sovuq munosabatlar urushi, mustaqillik jarchisi, keksa avlod va b.*

Semantik kalka natijasida sinonimlar qatorini to'ldiruvchi omillardan biri kalkalashuvchi so'z bilan kalkalangan so'zning baravar qo'llanishida namoyon bo'ladi. Aniqroq qilib aytganda, kalkalashuvchi so'z ham, kalkalangan so'z ham tilda ishlatilaveradi. Mana shunday sinonimlar jumlasiga quyidagilarni kiritish mumkin: *Energiya – quvvat, lampochka – chiroq, knopka – tugmacha, vizit – tashrif, logika – mantiq, magazin – do'kon va b.*





To'g'ri, bunday sinonimik qator vaqti kelib barham topishi mumkin. Keltirilgan misollardan ma'lum bo'ladiki, ular, asosan, ilmiy, kitobiy uslublarga xoslangan. Bunday uslublarda esa sinonimlarning mavjud bo'lishi o'zini oqlamasligi terminologiya masalalarini o'rganishga bag'ishlangan ishlarda alohida qayd etib o'tilgan. Bundan 15-20 yil oldin Respublikamiz matbuot sahifalarida shu xildagi sinonimiyaning nihoyat ko'payib ketganligini eslab ko'raylik. O'sha vaqtlarda *respublika* – *jumhuriyat*, *universitet* – *oliygoh*, *aeroport* – *tayyoragoh* kabi sinonimik qatorlardan hozirgi kunda ularning ruscha-baynalmilal shakllari qo'llanayotganligini eslatib o'tamiz. Bundan tashqari, *oblast* – *viloyat*, *rayon* – *tuman*, *magazin* – *do'kon* kabi sinonimik qatorlardagi ruscha – baynalmilal so'zlar esa hozirgi kunda ishlatilmay qo'ydi.

Xullas, semantik kalkalash natijasida o'zbek tilining so'zlarida bir qancha o'zgarishlar ro'y berdi, xususan, ot turkumiga mansub so'zlarning polifunksionallik doirasi ancha kengaydi.